

**TALABALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATINI IJTIMOY
SHERIKCHILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.**

Rahmonova Husniobod Valeriy qizi

Fargona viloyat oltiariq tuman

10- sonli umumtalim maktabi o‘qituvchisi

Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqobatbardosh, yuqori malakali pedagoglar sifatida tayyorlashda ijtimoiy sherikchilik asosida o‘qitish yondashuvi zamonaviy ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur yondashuv ta‘limiy imkoniyatlar majmuasini o‘z ichiga olib, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim pedagogik mexanizmlarni namoyon etadi. Birinchidan, ijtimoiy sherikchilik orqali ta‘lim jarayonini tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual faolligini kuchaytirish va tayyorgarlik mazmunini amaliy bilimlar bilan boyitish imkonini beradi. Bu orqali talabalar real muhitdagi ta‘limiy, ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarga duch keladi, bu esa ularning tahliliy fikrlash, muammoni aniqlash va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ikkinchidan, ta‘lim jarayonida ijtimoiy sherikchilik doirasidagi ilg‘or usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa nafaqat o‘qituvchilik faoliyatining texnologik jihatlarini o‘zlashtirishga, balki ushbu texnologiyalarni kasbiy faoliyatga moslashtirish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, zamonaviy talabaning ijtimoiy faolligi nuqtai nazaridan “professional” qiyofasini shakllantirishga xizmat qiluvchi kasbiy mahorat xususiyatlari bilan bo‘lajak o‘qituvchi faoliyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tahlil etiladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, shaxsiy va kasbiy o‘shishni kompleks tarzda baholash imkonini beradi. To‘rtinchidan, texnologik yondashuvlar asosida pedagogik faoliyatda professionallikka erishish yoki bunga to‘sqinlik qiluvchi qonuniyatlar, mexanizmlar, shart-sharoitlar va omillar tahlil qilinadi. Bunday tahlil natijalari asosida pedagog shaxsining rivojlanish yo‘llari, usullari va uning kasbiy yuksalishiga oid prognozlar ishlab chiqiladi. Beshinchidan, oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida shaxsning erishilgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beruvchi tashkiliy-metodik ta‘minotni yaratish muhim ta‘limiy resurs sifatida xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish jarayonida

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi: innovatsiya va integratsiya” fanining mavzularini metodlashtirish va ularni aniq maqsadga yo‘naltirish mazkur tadqiqot ishining dolzarb va samarali yo‘nalishi sifatida e‘tirof etiladi.

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi: innovatsiya va integratsiya” fanini ijtimoiy sherikchilik yondashuvi asosida mavzulashtirishda, aynan ushbu fan mazmuni va uning xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlab olingan interfaol metodlar orqali talabalar intellektual qobiliyatining muayyan komponentlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratildi. Tanlangan metodlar respondent-talabalar ishtirokidagi o‘quv jarayoniga faol joriy etildi va ularning kasbiy-intellektual faolligini oshirishga xizmat qildi. Quyida ushbu interfaol

metodlarning mazmuni, qo‘llanish usullari va amaliy samaradorligi yuzasidan misollar hamda metodlarning batafsil tavsifi keltiriladi.

1-mavzu: “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya fanining mazmuni, predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqod obyekti, metodlari” mavzusida amaliy mashg‘ulot jarayonining metodik loyihasi.

Mashg‘ulot maqsadi: Bo‘lajak o‘qituvchilarda boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining konseptual asoslarini chuqur anglash, ta’lim jarayonini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish hamda ta’lim tamoyillarini pedagogik amaliyotga integratsiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish mazkur mashg‘ulotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilik kasbiga ijobiy munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy sherikchilik asosida jamoaviy hamkorlik madaniyatini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga mas‘uliyat bilan yondashishni tarbiyalash kabi tarbiyaviy vazifalar ham amalga oshiriladi. Mazkur jarayon tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantirish, shaxsiy refleksiya yuritish, muloqot, taqdimot hamda ijtimoiy faoliyat ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Vositalar: Slaydlar (3–5 ta), flomaster va A4 qog‘ozlar, test kartochkalari, Rol o‘ynash kartalari, “Qadamlar” baholash tizimi (grafik chizma).

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimining samaradorligi uning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim bosqichining sifatiga bevosita bog‘liqdir. Aynan shu bosqichda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, bilimga bo‘lgan qiziqishi, ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyati hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari mustahkam poydevoriga ega bo‘ladi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi umumiy pedagogikadan farqli o‘laroq, o‘ziga xos metodologik yondashuvlar, o‘quv-uslubiy tamoyillar va pedagogik texnologiyalar majmuasi sifatida mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida qaraladi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi bolaning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali ta’lim jarayonini puxta rejalashtirishni, uni tizimli va yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etishni taqozo etadi. Ta’lim jarayonining yaxlitligi deganda, bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarining o‘zaro uzviy bog‘lanishi va uyg‘unlashuvi tushuniladi. Bu esa pedagogdan nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik hamda tizimli fikrlash kabi malakalarni talab qiladi.

1-qadam. Har bir talaba 1 ta so‘z bilan boshlang‘ich ta’limni qanday tasavvur qilishi yuzasidan o‘z fikrini aytadi. (masalan: “mehribonlik”, “zamonaviylik”, “asos”, “ilm bosqichi” va h.k.) , Mashg‘ulotning o‘quv maqsadlari va bosqichlari aytiladi. Mashg‘ulot interaktiv bo‘lishi haqida ogohlantiriladi.

2-qadam Motivatsion savol: “Nega aynan boshlang‘ich ta’limda pedagogika alohida o‘rganiladi?” Talabalar fikr bildiradi, moderator izohlaydi. Muammoli vaziyat (guruhlariga beriladi), uammo 1 (1-guruh):

Yangi boshlagan o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnata olmayapti, natijada darslar samarasiz o‘tmoqda. Savol: Qanday kasbiy mahoratlar bu holatni bartaraf etishda yordam beradi?

20-Mart, 2026-yil

Muammo 2 (2-guruh): Ba’zi o‘qituvchilar ishga faqat vaqt o‘tkazish vositasi sifatida qaraydi. Natijada, talabalar ularning dars jarayonidan ilhomlanmayapti va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi pasaymoqda. Savol: Bunday muammoni qanday yondashuv bilan hal qilish mumkin? O‘qituvchining majburiyatlari nima?

Muammo 3 (3-guruh): Ota-onalar maktabdagi darslar sifati haqida shikoyat qilmoqda. Savol: O‘qituvchining kasbiy mas’uliyati ota-onalar bilan munosabatda qanday ko‘rinadi?

Muammo 4 (4-guruh): Ba’zi o‘qituvchilar o‘z ustida ishlamaydi, yangiliklarni o‘rganmaydi. Savol: Pedagogik fikrni rivojlantirishda doimiy o‘qish va yangilanishning o‘rni qanday? 3-qadam. O‘qituvchi 3 ta slayddan iborat qisqacha axborot beradi: Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining o‘ziga xosliklari, ta’limning tizimli xususiyati, asosiy tamoyillar: izchillik, tizimlilik, moslik, insonparvarlik, differensiallik, faoliyatga yo‘naltirish, motivatsiya berish.

4-qadam. Interaktiv dialog: “To‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri?” Har bir talabaga bitta bayonot beriladi: “Boshlang‘ich ta’limda asosiy e’tibor darslikka qaratiladi.”

– To‘g‘ri/noto‘g‘ri?

“Har bir pedagog o‘z tizimini ishlab chiqishi kerak.” – To‘g‘ri/noto‘g‘ri? 5-qadam. Kichik guruhlarda munozara.

Guruhlar 4 taga bo‘linadi: 1-guruh: Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining vazifalari; 2-guruh: Ta’limning yaxlit tizim sifatidagi modeli; 3-guruh: Zamonaviy tamoyillar va an’anaviy tamoyillar solishtiruv; 4-guruh: Innovatsion tamoyillar asosida dars misoli. Vazifa: Guruhlar 1 ta plakatga fikrlarini yozib, 2 daqiqada himoya qiladi. (8 daqiqa tayyorgarlik, 7 daqiqa taqdimot).

6-qadam. Rol o‘ynash: “Siz boshlang‘ich maktab o‘qituvchisisiz” 2 talabadan iborat juftliklar holatga asoslangan vaziyatni o‘ynaydi: Ota-ona: “Nega bolam sinfda ko‘p harakat qiladi?” O‘qituvchi: Tamoyillar asosida tushuntiradi. 3 juftlik chiqib, rollar o‘ynaydi. Qolganlar baholaydi.

6-qadam. Refleksiya savoli. “Bugun bilib olgan 3 ta asosiy tamoyilni amaliyotda qanday qo‘llash mumkin?” – umumiy suhbat.

7-qadam. Savol-javoblar asosida test 5 ta test savoli ekranda: 1-toifa: O‘ziga xoslik haqida; 2-toifa: Yaxlit tizim haqida; 3-toifa: Tamoyillar (match qilish).

8-qadam. “Qadamlar” metodi asosida baholash. Talabalar doskaga kelib, 1- 2-3-4 qadamlardan birini tanlab turadi: 1-qadam: Kam ishtirok etdim; 2-qadam: Fikr bildirdim; 3-qadam: Guruhda faol edim; 4-qadam: Yetakchilik qildim.

9-qadam. Darsni yakunlash umumiy refleksiv baholash Talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda “Ijtimoiy sherikchilik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni” ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga

mustahkam poydevor yaratadi.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy sherikchilik asosida tuzilgan o‘quv faoliyati bo‘lajak pedagoglarning nafaqat individual bilim va ko‘nikmalarini, balki jamoaviy

ishlash, hamkorlikda muammo yechish, ijtimoiy ongning takomillashuvi kabi hislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu esa, ularning kelajakdagi ta’lim muassasalarida zamonaviy, innovatsion va intellektual muhitni shakllantiruvchi ilg‘or mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Namunaviy fan sifatida tanlab olingan “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi: innovatsiya va integratsiya” fani talabalarning intellektual qobiliyatlarini ijtimoiy sheriklik asosida rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini berdi. Ushbu fan mazmuni tabiiy uyg‘unligi bilan ajralib turadi ya’ni u nafaqat pedagogik bilimlarni, balki innovatsion va integratsion yondashuvlar orqali intellektual salohiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Dissertatsiya doirasida aynan shu fan asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy sheriklikka asoslangan interfaol metodlar takomillashtirilib, ta’lim amaliyotiga joriy etildi. Mazkur metodlar nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda ijtimoiy-axloqiy qarorlar qabul qilish, kommunikativ madaniyat, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash kabi muhim intellektual kompetensiyalarni izchil rivojlantirishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduxalilov A., Nishanbayeva E., O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari <https://www.researchgate.net/publication//347901766> O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari.

2. Abdurasulov A.A. Ijtimoiy sheriklikning Evropa tajribasi // <https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy-sheriklikning-evropa-tajribasi>.

3. Toxtaxodjayeva M.X., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M., Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N.; Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent-2022.

4. Spivak A.L., Farran D.C. Predicting First Graders’ Social Competence from Their Preschool Classroom Interpersonal Context/Tom: 31 Vipusk: 3 Str.:341-357. Opublikovano: JULY 2016

5. <http://www.pedagog.uz/>